ROSSIYA FEDERATSIYASI DIPLOMATIK PROTOKOLI VA ETIKETI: AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK

Bekmurodov Muzaffar

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Xalqaro munosabatlar" ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi Tel: 88.408-82-05

Ilmiy rahbar: s.f.f.d., dotsent ***Javohir Sobirov***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya Federatsiyasi diplomatik protokoli va etiketining shakllanish tarixi, tuzilmasi hamda zamonaviy xususiyatlari tahlil etilgan. Maqolada Rossiya Tashqi ishlar vazirligi tarkibidagi Davlat protokoli departamentining vazifalari, rasmiy tashriflarni tashkil etish tartibi, diplomatik murojaat shakllari, yozishmalar madaniyati, qabullar, sovg'alar almashish va mehmondo'stlik an'analari batafsil yoritilgan. Shuningdek, 1961 yilgi Vena konvensiyasining Rossiya diplomatik amaliyotidagi o'rni ko'rsatilgan. Maqolaning alohida bo'limida XXI asrda raqamli texnologiyalarning diplomatik faoliyatga ta'siri va "raqamli diplomatiya" tushunchasining shakllanishi tahlil etilgan. Xulosa sifatida Rossiya diplomatik protokolida an'anaviylik va zamonaviylikning uyg'un sintezi bo'lishi – davlat prestijini, milliy o'zlikni va xalqaro hurmatni saqlab, yangi texnologiyalar orqali diplomatik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Diplomatik protokol, diplomatik etiket, Russia Federatsiyasi, elchilik mahkamasi, davlat protokoli departamenti, Tashqi ishlar vazirligi, Vena konvensiyasi, davlat tashrifi, diplomatik yozishmalar, diplomatik immunitet, diplomatik qabul, rasmiy marosim, raqamli diplomatiya, mehmondo'stlik an'analari, an'anaviylik va zamonaviylik.

KIRISH. Diplomatik protokol davlatlar o'rtasidagi rasmiy munosabatlarda amal qilinadigan qoidalar, marosimlar va an'analar majmuasini anglatib, davlat

rahbarlari, hukumat vakillari, diplomatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalarda tartib va hurmatni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek. diplomatik protokol davlatlar o‘rtasidagi tenglik, o‘zaro hurmat va suverenitet tamoyillariga asoslanadi. Protokol qoidalari xalqaro amaliyot davomida shakllangan bo‘lib, ular diplomatik uchrashuvlar, rasmiy tashriflar, qabullar, muzokaralar va boshqa marosimlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Rossiya Federatsiyasi diplomatiyasi qadimgi va zamonaviy davrda ham muhim ro‘l o‘ynab kelmoqda. 1549-yilda Ivan Grozniy davrida “Elchilik mahkamasi” tashkil etildi va bu Rossiyadagi birinchi ixtisoslashgan tashqi siyosat organi edi. Ivan IV davrida diplomatik protokol davlat hokimiyatini namoyish etish vositasiga aylantirilib, saroy marosimlari, qabul tartiblari, hukmdorga murojaat shakllari va elchilarning qabul qilinishi tasodifiy emas, balki oldindan belgilangan ramziy tartib asosida o‘tkazilgan. Ivan IV davrining eng muhim natijalaridan biri tashqi aloqalarni yurituvchi maxsus boshqaruv tizimi — “Посольский приказ”, ya’ni elchilik ishlari bilan shug‘ullanuvchi markaziy idora, aynan Ivan IV davrida shakllanib, xorijiy elchilarni qabul qilish, rus elchilarini chet davlatlarga yuborish, diplomatik hujjatlar tayyorlash va muzokaralarni tashkiliy jihatdan yuritish bilan shug‘ullangan.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Pyotr I Rossiyani Yevropa davlatlari bilan teng darajada siyosiy va diplomatik munosabatlar olib boradigan davlatga aylantirishga harakat qildi. 1717-1720-yillarda tashqi ishlar boshqaruv tizimida kollegiya tizimi — Tashqi ishlar kollegiyasi tashkil etildi. Ushbu idora Rossiyaning tashqi siyosatini yuritish, diplomatik vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish, elchilarni tayinlash va xorijiy davlatlar bilan muzokaralar olib borish bilan shug‘ullangan va Rossiya saroyidagi rasmiy marosimlarni Yevropa saroylari uslubiga yaqinlashtirdi. Davlat qabul marosimlari, rasmiy ziyofatlar, diplomatik uchrashuvlar va elchilarni qabul qilish tartibi aniq protokol qoidalari

asosida o‘tkazila boshladi. Bu orqali Rossiya o‘zini Yevropa davlatlari bilan teng diplomatik maqomga ega davlat sifatida ko‘rsatishga harakat qildi.

Shunga qaramay, vaqt o‘tishi bilan 1920-1930-yillarda Sovet Ittifoqi ko‘plab davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatdi. Bu jarayon diplomatik etiket va protokol qoidalarining xalqaro standartlarga yaqinlashishiga olib keldi. Sovet diplomatlari xalqaro konferensiyalar, muzokaralar va rasmiy uchrashuvlarda umumiy diplomatik amaliyot qoidalariga amal qila boshladilar. Sovet davrida diplomatik etiketga ham katta e’tibor qaratilgan bo’lib, rasmiy uchrashuvlar, diplomatik qabullar va muzokaralar aniq protokol qoidalari asosida o‘tkazilgan. Shuningdek, diplomatik yozishmalar ham qat’iy rasmiy uslubda olib borilgan. Sovet diplomatik hujjatlarida davlatlarning rasmiy nomlari, unvonlar va diplomatik formulalar aniq belgilangan tartib asosida ishlatilgan. 1980-yillarning oxiriga kelib Sovet Ittifoqida siyosiy islohotlar boshlandi. Bu davrda xalqaro aloqalar kengaydi va diplomatik faoliyat yanada faol tus oldi. 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalangach, uning diplomatik tizimi ham o‘zgarib, yangi Rossiya Federatsiyasi diplomatik tizimiga asos bo‘ldi.

Rossiya Federatsiyasi ham 1961-yilgi Vena konvensiyasining ishtirokchi davlatlaridan biri hisoblanadi va o‘z diplomatik faoliyatida ushbu xalqaro huquqiy normalarga amal qiladi. Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi diplomatik marosimlar, davlat tashriflari va xalqaro uchrashuvlarni aynan xalqaro protokol qoidalari asosida tashkil qilinadi. Ushbu sohadagi asosiy vazifalarni Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi tarkibidagi Davlat protokoli departamenti bajarib, davlat rahbarlari, hukumat a’zolari va yuqori darajadagi xorijiy delegatsiyalar bilan bog‘liq rasmiy tadbirlarni tashkil etish hamda diplomatik marosimlarni xalqaro protokol qoidalariga muvofiq ravishda o‘tkazishni ta’minlaydi.

Davlat protokoli departamentining asosiy funksiyalaridan biri Rossiyaga amalga oshiriladigan rasmiy va davlat tashriflarini tashkil etishdan iborat. Departament xorijiy davlat rahbarlari, hukumat vakillari va xalqaro tashkilotlar delegatsiyalarining tashriflarini tayyorlaydi, ularning dasturini ishlab chiqadi hamda marosimlarning protokol qoidalariga muvofiq o‘tishini nazorat qiladi. Shu bilan birga, Rossiya davlat rahbarlarining boshqa mamlakatlarga amalga oshiradigan rasmiy tashriflarini ham protokol jihatdan tayyorlashda ishtirok etadi. Departament diplomatik korpus bilan ishlash masalalarida ham muhim rol o‘ynaydi. Rossiyada faoliyat yuritayotgan xorijiy davlatlarning elchilari va diplomatik vakillari bilan rasmiy aloqalarni muvofiqlashtirish, ularning akkreditatsiya jarayonini tashkil etish ham departament vazifalariga kiradi. Yangi tayinlangan elchilar Rossiya Federatsiyasi Prezidentiga ishonch yorliqlarini topshirish marosimi aynan Davlat protokoli departamenti tomonidan tayyorlanadi va tashkil etiladi. Davlat protokoli departamenti diplomatik marosimlar va rasmiy qabullarni tashkil etish bilan ham shug‘ullanadi. Bunday tadbirlar qatoriga rasmiy ziyofatlar, qabul marosimlari, konferensiyalar va davlat bayramlariga bag‘ishlangan tadbirlar kiradi va ushbu tadbirlar xalqaro diplomatik amaliyotda qabul qilingan protokol qoidalariga muvofiq ravishda o‘tkaziladi.
Departamentning yana bir muhim vazifasi davlat ramzlari va protokol tartibiga rioya etilishini ta’minlashdan iborat. Bu davlat bayroqlarining joylashtirilishi, davlat rahbarlarining o‘tirish tartibi, rasmiy delegatsiyalarning joylashuvi va boshqa marosimiy jihatlarni o‘z ichiga olib, bunday qoidalar xalqaro diplomatik amaliyotda davlatlar o‘rtasidagi tenglik va o‘zaro hurmat tamoyillarini ifoda etadi. Shuningdek, Davlat protokoli departamenti Rossiya hududida faoliyat yuritayotgan diplomatik vakolatxonalar bilan doimiy aloqada bo‘ladi hamda ularning faoliyatiga oid protokol masalalarini muvofiqlashtiradi. Bu diplomatik missiyalar uchun qulay sharoit yaratish va xalqaro huquq normalariga rioya etilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Diplomatik faoliyatda rasmiy muloqot va

yozishmalar muhim o‘rin tutub, diplomatik aloqalar davomida davlat vakillari o‘rtasidagi munosabatlar aniq belgilangan etiket qoidalar asosida olib boriladi.

Diplomatik vakillar bir-biriga odatda lavozim va rasmiy unvonlar orqali murojaat qiladilar: masalan, elchiga “Janobi Oliylari”, vazirlarga “Hurmatli vazir”, davlat rahbarlariga esa “Janobi Prezident” kabi murojaat shakllari qo‘llaniladi. Bunday murojaat shakllari xalqaro diplomatik amaliyotda hurmat ifodasi sifatida qabul qilingan. Rossiya diplomatik amaliyotida ham rasmiy murojaat shakllariga katta e’tibor beriladi. Rossiya rasmiy yozishmalarida odatda “уважаемый” (hurmatli) yoki “глубокоуважаемый” (chuqur hurmatli) kabi iboralar ishlatiladi. Diplomatik yozishmalar odatda rasmiy uslubda, aniq va qisqa shaklda yoziladi. Matn rasmiy murojaat bilan boshlanib, diplomatik hurmat ifodalovchi iboralar bilan yakunlanadi.

Diplomatik yozishmalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Ularga nota, memorandum, shaxsiy maktub va rasmiy xabarlar kiradi. Nota diplomatik yozishmalarning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi rasmiy munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Memorandum esa muayyan masala yuzasidan batafsil tushuntirish yoki pozitsiyani bayon qilish uchun qo‘llaniladi. Rasmiy yozishmalarda davlat nomlari, lavozimlar va unvonlar to‘g‘ri yozilishi muhim hisoblanadi. Diplomatik qabullar odatda rasmiy ziyofatlar, nonushta va tushlik tadbirlari sifatida tashkillashtiriladi va bu tadbirlarning o‘ziga xos protokol qoidalari mavjud. Diplomatik nonushta odatda ertalab yoki tushga yaqin vaqtga belgilangan bo‘ladi va bu nisbatan norasmiyroq hisoblanib, ko‘pincha ishchi uchrashuvlar bilan birga o‘tkaziladi.. Bunday tadbirlar qisqa davom etadi va qatnashuvchilar soni ham odatda ko‘p bo‘lmaydi. Diplomatik tushlik esa ko‘proq rasmiy tusga ega bo‘ladi va odatda yuqori darajadagi delegatsiyalar yoki davlat vakillari ishtirokida tashkil etiladi. Bu tadbirlarda o‘tirish tartibi, mehmonlarning joylashuvi, dastur va nutqlar protokol qoidalari asosida oldindan belgilab

qo‘yiladi. Shuningdek, tushlik davomida qisqa nutqlar yoki tostlar aytilishi mumkin.

Diplomatik qabullarni tashkil etishda protokol qoidalariga qat’iy rioya qilinadi. Mehmonlar ro‘yxatini tuzish, taklifnomalarni yuborish, o‘tirish tartibini belgilash va davlat ramzlarini joylashtirish kabi masalalar oldindan rejalashtiriladi. Taklifnomalar odatda rasmiy shaklda yuboriladi va unda tadbir vaqti, joyi hamda kiyinish talablari ko‘rsatiladi. Diplomatik amaliyotda sovg‘alar odatda rasmiy tashriflar vaqtida yoki muhim uchrashuvlar munosabati bilan taqdim etiladi. Rossiya diplomatik an’analarida sovg‘alar ko‘pincha milliy madaniyatni ifodalovchi buyumlar bo‘ladi, masalan, san’at asarlari, suvenirlar yoki tarixiy ramziy ma’noga ega buyumlar sovg‘a sifatida berilishi mumkin. Biroq sovg‘a berishda diplomatik protokol qoidalariga rioya qilish muhim, chunki haddan tashqari qimmatbaho sovg‘alar noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin.

Rossiya diplomatik madaniyatida mehmondo‘stlik ham muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, rasmiy uchrashuvlar va diplomatik qabullar paytida mehmonlarga alohida hurmat ko‘rsatiladi. Rossiyada davlat tashriflari vaqtida mehmonlarni tantanali kutib olish marosimi o‘tkaziladi. Bu marosimda davlat bayroqlari ko‘tarilib, davlat madhiyalari ijro etiladi va faxriy qorovul saf tortadi. Bunday marosimlar diplomatik protokol qoidalariga mos ravishda tashkil etiladi va davlatlar o‘rtasidagi hurmatni ifodalaydi. Tost aytish Rossiya madaniyatida alohida o‘rin egallaydi va diplomatik tadbirlarda ham keng qo‘llaniladi. Rasmiy ziyofatlar paytida davlat rahbarlari yoki delegatsiya rahbarlari qisqa nutq yoki tost orqali mezbon davlatga va ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikka hurmat bildiradilar. Rossiya diplomatik amaliyotida vaqtga rioya qilish ham muhim hisoblanadi. Rasmiy uchrashuvlar, muzokaralar va marosimlar oldindan belgilangan tartib asosida o‘tkazilib, diplomatik delegatsiyalar uchun aniq dastur tayyorlanadi va barcha tadbirlar protokol qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

XXI asrda axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi diplomatik faoliyatga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy diplomatiyada raqamli texnologiyalardan foydalanish kengayib, “raqamli diplomatiya” va “raqamli protokol” tushunchalari shakllandi. Raqamli protokol diplomatik faoliyatni tashkil etishda zamonaviy kommunikatsiya vositalari, internet texnologiyalari va elektron platformalardan foydalanishni anglatadi. Rossiya Federatsiyasi ham zamonaviy diplomatiyada raqamli texnologiyalardan faol foydalanmoqda. Rossiya Tashqi ishlar vazirligi diplomatik faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etgan. Rasmiy uchrashuvlar va xalqaro muzokaralarda onlayn platformalar, elektron hujjatlar almashinuvi va raqamli aloqa vositalari qo‘llanilmoqda. Raqamli protokolning yana bir muhim jihati rasmiy axborotlarni tezkor yetkazish va jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirishda ulkan hissa qo’shadi. Rossiya diplomatik vakolatxonalari va tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalar orqali xalqaro jamoatchilik bilan aloqa olib boradi va bu orqali davlat siyosati, diplomatik tashriflar va xalqaro uchrashuvlar haqida tezkor ma’lumotlar tarqatiladi.

Xulosa. Rossiya Federatsiyasi diplomatik protokoli va etiketi – asrlar davomida shakllanib, takomillashib kelgan murakkab va ko'p qirrali tizimdir. Ushbu tizimning tarixiy ildizlari 1549 yilga, Ivan Grozniy davrida tashkil etilgan "Elchilik mahkamasi"ga borib taqaladi. O'sha davrdan buyon Rossiya diplomatik protokoli bir necha muhim bosqichni bosib o'tdi: Pyotr I islohotlari orqali Yevropa standartlariga yaqinlashdi, Sovet davri ta'sirida o'ziga xos ideologik rang kasb etdi va nihoyat, 1991 yildan so'ng mustaqil Rossiya Federatsiyasining yangi diplomatik tizimi sifatida qayta shakllandi. Rossiya Federatsiyasi diplomatik protokolining asosini uchta tamoyil tashkil etadi: davlatlar o'rtasidagi tenglik, o'zaro hurmat va suverenitet. Aynan shu tamoyillar asosida Davlat protokoli departamenti barcha rasmiy tashriflar, akkreditatsiya marosimlari, diplomatik qabullar va davlat ramzlariga oid tartiblarni xalqaro huquqiy normalarga,

xususan, 1961 yilgi Vena konvensiyasiga muvofiq amalga oshiradi.

An'anaviy jihatdan Rossiya diplomatik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlash joiz: rasmiy murojaat shakllariga ("уважаемый", "глубокоуважаемый") qat'iy rioya etish, diplomatik yozishmalarning yuqori rasmiylik darajasi, mehmondo'stlik va tost an'analari, milliy madaniyatni ifodalovchi sovg'alar almashish, shuningdek, davlat tashriflarida madhiya ijrosi, bayroqlar ko'tarish va faxriy qorovul kabi tantanali marosimlarning saqlanib qolinishi. Zamonaviylik nuqtai nazaridan esa Rossiya diplomatiyasi XXI asr talablariga moslashib, "raqamli diplomatiya" yo'nalishini faol rivojlantirmoqda. Onlayn platformalar, elektron hujjat almashinuvi, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlar orqali xalqaro jamoatchilik bilan tezkor muloqot — bu barcha yangiliklar an'anaviy protokol qoidalarini siqib chiqarmagan, aksincha, ularni yangi muhitda davom ettirmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1.https://miit.ru/content/%1E%D0%B1%D0%BB%D0%BE%D0%B6%D0%BA%D0%B0.pdf?id_vf=21099

2. https://unec.edu.az/application/uploads/2015/06/0521_bmrus.pdf\

3.https://mid.ru/en/foreign_policy/fundamental_documents/1860586/

4.https://www.ssoar.info/ssoar/bitstream/handle/document/32806/ssoar-balticreg-2011-4-pshtyka-Diplomatic_protocol_as_a_tool.pdf?sequence=1

5.https://www.researchgate.net/publication/364656327_Diplomatic_Protocol_and_Anglo-Russian_Negotiations_in_1662-1663

6.https://embassylife.ru/en/2023/05/15/27836/

7.https://dipacademy.ru/en/special-projects-en/diplomatic-service-and-practice-en/

8.https://eipublication.com/index.php/eijps/article/download/3586/3312/501

9.https://spb.hse.ru/soc/illuminated/news/1065092110.html

10.http://www.ediplomat.com/np/cultural_etiquette/ce_ru.htm

11.https://www.reddit.com/r/russian/comments/11f7pmt/what_are_some_mannerisms_and_etiquette_that_are/

12.https://www.cntraveler.com/stories/2009-11-11/etiquette-101-russia

13.https://lidenz.com/russian-etiquette-dos-and-donts-when-visiting-russia/

14.https://www.jhiblog.org/2022/11/07/how-to-act-friendly-informal-diplomatic-relationships-in-18th-century-russia/